



UCHLIK JANRINING POETIK TABIATIGA DOIR ILMIY TAHLIL

Ken'esova Aysuliw

QDU doktoranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lirik poeziyaning kichik janrlaridan biri bo'lgan uchlikning shakl, mazmun va badiiy-estetik xususiyatlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Adabiyotshunoslikda turli davr va makonlarda uchlikning poetik mohiyati, uning ritmik-struktural imkoniyatlari, obrazlar tizimi va falsafiy semantikasi alohida tadqiq qilinmagan sohaga mansub bo'lib, mazkur maqola ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Uchlikning badiiy-estetik qiymati, uning lirik subyekt ruhiyatini ixcham, ammo falsafiy teran ko'lamda ifodalash imkoniyati ilmiy-nazariy asosda sharhlanadi.*

Kalit so'zlar: *uchlik, kichik lirik shakl, ritm, badiiy struktura, lirik subyekt, ramziy qatlam, poeziya.*

Annotation (in English): *This article provides an academic analysis of the tercet (tertsina), one of the major forms of short lyric poetry. The study examines the structural, semantic and aesthetic features of the tercet, tracing its historical origins in both Uzbek and world poetic traditions. While the tercet has played an essential role in classical and modern poetry, its genre-specific mechanisms have not been thoroughly explored in literary scholarship. The research highlights how the tercet encapsulates complex emotional and philosophical content in a compact form, demonstrating its artistic and rhythmic potential.*

Keywords: *tercet, lyric form, short poetic genres, rhythm, poetic structure, lyrical persona, symbolism, poetry.*

Lirik poeziya inson ruhiyati, kechinmalari va ichki olamini ixcham, ammo badiiy kuchli shaklda aks ettirish imkoniyati bilan badiiy tafakkur tarixining eng qadimiy qatlamlaridan birini tashkil etadi. Kichik lirik janrlar, xususan uchliklar ushbu jarayonning eng yuksak darajada poetiklashgan shakllaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Uchlik uch misradan iborat ixcham struktura bo'lib, mazmuniy jihatdan serqatlam obrazlar, ritmik uyg'unlik, ma'nodagi dinamika va ichki munosabatlar tizimi bilan ajralib turadi. Sharq mumtoz adabiyotida *ruboiy, tuyuq, qit'a* kabi shakllarga e'tibor ustun bo'lgan bo'lsa, uchlikning mustaqil janr sifatida shakllanishi va qo'llanish doirasi ko'proq yangi davr poeziyasi hamda g'arb adabiyotidagi *tertsina* an'analari bilan bog'liq. Ammo uchlikning poetik tabiati, uning sintaktik va semantik ixchamligi, poetik fikrning uch satrda eng muhim nuqtasini aks ettirish imkoniyati uni qadimiy poetik tafakkur bilan ham uyg'unlashtiradi.

Uchlik shaklining nazariy ildizlarini qadimgi yunon va italyan adabiyotidagi *tertsina* strukturasidan kuzatish mumkin. Dante "Ilohiy komediya" asarida uchlikning nihoyatda murakkab — o'zaro bog'langan qofiyaviy tizimini yaratgan bo'lsa, ingliz

romantiklari bu shaklni falsafiy va lirik fikrni ixcham ifodalash vositasiga aylantirganlar [1]. Ingliz she'riyatida Byron, D.Thomas kabi shoirlar uchlikning musiqiy tabiati va ritmik muvozanatidan keng foydalanganlar. G'arb poeziyasidagi uchliklarda har bir satr yangi bir ma'no bosqichiga o'tuvchi ko'prik rolini bajaradi. Shunday poetik mexanizm turkiy xalqlar she'riyati rivojida ham sezilarli ta'sirga ega bo'lgan.

Aytib o'tish joizki, o'zbek adabiyotida ham uchlik shaklining qadimiy ildizlari xalq og'zaki ijodidagi uchliklarga xos sintaktik qurilishlarda, maqol va hikmatlarning uchlik tartibida joylashgan semantik strukturasida uchraydi. Biroq uchlikning mustaqil she'riy janr sifatida shakllanishi XX asrning boshlaridan boshlab kuchaydi. Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir kabi ijodkorlar lirik mazmunni ixcham, ammo serma'no birlikga joylashtirish orqali uchlikning badiiy imkoniyatlarini kengaytirdilar.

Uchlikning badiiy qiymati, avvalo, uning ritmik va sintaktik ixchamligida namoyon bo'ladi. Uch satrda shoir fikrning cho'qqisini, ruhiy holatning eng yuqori nozik nuqtasini topishi, lirik subyekt ichki olamini obrazlar vositasida teran ifodalashi talab etiladi. Uchlikda ortiqcha tafsilotlar, keng epik izohlar, cho'zilgan tasvirlar deyarli o'rin olmaydi [2]. Har bir so'z, har bir obraz mazmuniy yukga ega bo'lib, ularning barchasi ma'no bosqichining o'zgarish dinamikasini yaratadi. Uchlikning birinchi misrasi ko'pincha holatni belgilasa, ikkinchi satr ziddiyat yoki hissiy kuchlanish yaratadi, uchinchi satr esa umumlashma, xulosa, birlashma yoki keskin burilish vazifasini bajaradi. Shu jihatdan uchlik sintaktik jihatdan ham uch bo'lakli kompozitsiya tamoyiliga asoslanadi.

Qoraqalpoq adabiyotida e'sa S.Ibragimov va B.Genjemuratov singari hozirgi davr adabiyoti namayondalarining ijodida uchlikning ajoyib namunalarini uchratamiz. Chunki ular ham mazmuniy, ham forma jihatidan o'ziga xoslikga e'ga asarlarni yaratib kelmoqda. Uchliklar ham shu qatorda ularning ijodining eng ajoyib xususiyatlaridan biri sanaladi. Shu bois bu shoirlarning uch qatorga butun bir mavzuni sig'dira olishi ham alohida chevarlikni talab qiladi.

Uchlik "Musallas" deb ham nomlanadi. Yevropa adabiyotida "tersina" (uchlik), bugungi o'zbek poeziyasida "uch chanoq" deb ham yuritiladi. Unda poetik olamning obrazi to'liq ifodasini topa oladi. Bugungi "tezkor" zamonda kishilarning murakkab, ziddiyatlarga to'la, shiddatkor, betakror ruhiy dunyolarini borligicha namoyon yetishga qodir kichik lirik janrlardan biridir. Shuningdek, B.Genjemuratov uchliklarida qofiyalar yo'q. Masalan:

Bir eles... - kók eles, zapıran dalada,
túngi mámelektey bul shańqay túste,
aqıl-huwshımızdı aylandıradı.
Basına kún tuwǵan erler etikli,
suw keshken payıtlar, búgin - ertekdur.
Qumlar toltıradı qılıshımız qınabın.



Uchlikning obrazlar tizimi ham ko‘pincha kuchli ramziy qatlamni o‘z ichiga oladi. Falsafiy fikrlarning ixcham shaklda berilishi, ramziy obrazlarning qisqa satrlarda jamlanishi ushbu janrning estetik jozibasini oshiradi. Ularda vaqt va makon, ruhiy holat va tashqi manzara, ichki mulohaza va tashqi harakat ko‘pincha uch bosqichda parallel tarzda ifodalanadi. Bu esa uchlikni fikrning mantiqiy ketma-ketligidan ko‘ra hissiy rivojlanish shakliga yaqinlashtiradi.

Uchlikning zamonaviy adabiyotdagi poetik vazifalaridan biri — qisqa, ammo ta’sirchan lirik fikrni yaratishdir. Hozirgi zamon shoirlari uchliklardan aforistik fikrni berish, mikro-lirik kechinmani ifodalash yoki falsafiy mulohazani ixcham shaklda bayon etish vositasi sifatida foydalanishmoqda [6].

Uchlik janri bugungi adabiyotshunoslikda yanada keng tadqiq etilishi lozim bo‘lgan doiradir. Uning ritmik mexanizmi, qofiyaviy tizimi, obrazlar poetikasi va semantik o‘ziga xosliklarini tahlil qilish, shuningdek turli madaniyatlar orasidagi uchlik tipologiyasini o‘rganish adabiyot tadqiqotlarining yangi yo‘nalishlarini ochadi. Uchlik lirik poeziyaning eng ixcham, ammo eng serma’no shakllaridan biri sifatida poetik tafakkurning teranligini, inson ruhiyatining murakkabligini qisqa shaklda yoritishini yana bir bor isbotlaydi. Natijada uchlik janri lirik poeziyaning o‘ziga xos yutug‘i, lirik subyektning eng nozik kechinmalarini yorituvchi poetik vosita sifatida adabiyotda o‘z mavqeini mustahkamlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Orzibekov R. O‘zbek she’riyati janrlari va poetikasi.— S., 1999.
2. Baltayeva, Z. S. Ideological basis in erkin vokhidov's lyrics: attitude and interpretation. Актуальные научные исследования в современном мире. 2020, 88-90.
3. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. -Тошкент, «Ўзбекистон», 2002.
4. Гайлиева О. Мустақиллик даври туркий халқлар лирикасида шаклий изланишлар ва уларнинг типологияси. (Ўзбек, туркман, қорақалпоқ поэзияси мисолида) филол.фан.докт.(DSc). дисс.автореф.2019.
5. Оразымбетов Қ. Ҳазирги дэўирдеги қарақалпақ лирикасында көркемлик излениўшилиқ. Нөкис «Билим», 1992.
6. Оразымбетов Қ. Ҳазирги дэўирдеги қарақалпақ лирикасында көркем формалардың эволюциясы ҳәм типологиясы. Нөкис, «Билим» 2004.
7. Жәримбетов Қ. ХҲХ әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери ҳәм раўажланыў тәрийхи. Нөкис «Билим», 2004.
8. Internet materialлари: www.dissercat.uz.
9. www.qomus.info.uz.

